



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MAKTABGACHA TARBIYA MASKANLARI VA MAKTAB TA’LIMI TIZIMI FAOLIYATI

Tashxodjayev Murodjon Valijonovich
Andijon davlat texnika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekistondagi maktabgacha tarbiya maskanlari faoliyati, ularning asosiy vazifalari, iqtisodiy qiyinchiliklar va moddiy ta’minot masalalari hamda maktab ta’limi tizimi faoliyati bilan bog‘liq qiyinchiliklar, ta’lim-tarbiya muammolari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning turli xil mehnat faoliyatlari kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: urush yillari, onalar, yosh bolalar, bolalar bog‘chalari, maktabgacha tarbiya maskanlari, iqtisodiy qiyinchiliklar, moddiy ta’minot, maktab, ta’lim, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, front, topshiriq, sanoat, qishloq xo‘jaligi, mehnat.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ И СИСТЕМЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Ташходжаев Муроджон Валиджонович
Андижанский государственный технический институт, преподаватель

Аннотация

В статье рассматривается деятельность дошкольных учреждений в Узбекистане во время Второй мировой войны, их основные задачи, экономические трудности и вопросы материального обеспечения, а также трудности, связанные с функционированием системы школьного образования, образовательные проблемы и различные виды трудовой деятельности учителей и учащихся.

Ключевые слова: военные годы, матери, маленькие дети, детские сады, дошкольные учреждения, экономические трудности, материальное обеспечение, школа, образование, учителя, учащиеся, фронт, задача, промышленность, сельское хозяйство, труд.

THE ACTIVITY OF PRESCHOOL INSTITUTIONS AND THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II

Tashkhodjayev Murodjon Valijonovich
Andijan State Technical Institute, Lecturer

Abstract

This article examines the activities of preschool institutions in Uzbekistan during World War II, their main objectives, economic difficulties, and material support issues, as well as challenges associated with the functioning of the school education system, educational problems, and various types of work activities for teachers and students.

Keywords: war years, mothers, young children, kindergartens, preschool institutions, economic difficulties, material support, school, education, teachers, students, front, task, industry, agriculture, labor.

Ikkinchi jahon urushi tufayli O‘zbekistondan ko‘plab erkaklarning frontga safarbar etilishi oqibatida Respublika xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida ishlash ko‘proq yoshlar,

qariyalar va xotin-qizlar mehnatiga bog'liq bo'lib qolgan edi. Yosh bolali xotin-qizlarni ham xalq xo'jaligiga to'liq jalb etish uchun esa birinchi navbatda ularning qo'ldan yosh bolalarini olish, kunning ma'lum qismida oiladagi farzand tarbiyasidan ularni bo'shatib qo'yish lozim edi. Shu maqsadda respublika hukumati urush davri qiyinchiliklariga qaramay bolalar bog'chalari va yaslilarning uzluksiz ishlashini ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi.

1940-yilda O'zbekiston SSRda jami 683 ta bolalar bog'chasida 31989 nafar bolalar tarbiyalangan bo'lib, birgina Andijon shahrining o'zida 1940-yilda 38 ta bolalar bog'chalari hamda yaslilar bo'lgan bo'lsa, 1941-yilda ularning soni 43 taga yetgan edi [2; 55-b.].

Urushning dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklar hamda moddiy ta'minot masalasidagi uzilishlar natijasida, maktabgacha tarbiya maskanlarining bir qismi faoliyati to'xtatilib, ularning binolariga harbiy muassasalar, gospitalar joylashtirildi. Natijada, butun respublika hududlarida ko'plab maktabgacha tarbiya muassasalari o'z faoliyatini to'xtatdi. Shu boisdan doimiy ishlovchi bog'cha va yaslilarning soni sezilarli darajada kamaydi.

1944-yil O'zbekiston SSRda 412 ta maktabgacha ta'lim muassasi mavjud bo'lib, ularda 35000 bolalar tarbiyalangan. Toshkent oblastidagi 44 ta bolalar bog'chasida 3620 nafar bola tarbiyalangan. Toshkent shahrida esa 95 ta bolalar bog'chalari va yaslilar bo'lib, ularda 10340 nafar bolalar, Samarqand oblastidagi 56 ta maktabgacha tarbiya maskanida 4460 nafar, Buxoro oblastidagi 48 ta maktabgacha tarbiya maskanlarida 2982 nafar, Farg'ona oblastidagi 38 ta bolalar bog'chalarida 3760 nafar, Andijon oblastidagi 32 ta bolalar bog'chalarida 2760 nafar, Qashqadaryo oblastidagi 26 ta bolalar bog'chalarida 1210 nafar, Namangan oblastidagi 22 ta maktabgacha tarbiya maskanlarida 1974 nafar, Xorazm oblastidagi 14 ta bolalar bog'chalarida 920 nafar, Surxondaryo oblastidagi 13 ta bolalar bog'chalarida 1020 nafar, QQASSRdagi 30 ta bolalar bog'chalarida 2054 nafar bolalar tarbiyalangan edi [13; 56-b.].

1945-yilda Andijon oblastida 1371 nafar tarbiyalanuvchi doimiy maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnagan bo'lib, ularning 754 nafari shahar va 617 nafari esa qishloq maktabgacha tarbiya maskanlariga qatnagan edi.

Farg'ona oblastidagi maktabgacha tarbiya maskanlarida tarbiyalanuvchi 1451 nafar bo'lib, tarbiyalanuvchilarning 1000 nafari shaharlar, 451 nafari esa qishloqlardagi tarbiya maskanlarida tarbiyalangan edi.

Namangan oblasti bog'cha va yaslilarida 1881 nafar tarbiyalanuvchilarning 1357 nafari shaharlar, 524 nafari esa qishloqlarda maktabgacha tarbiya maskanlariga qatnagan edilar [14; 241-b.].

Urush yillari qiyinchiliklariga qaramay sovet ta'lim-tarbiyasi tizimida maktabgacha ta'lim maskanlari tarmog'ini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Biroq bu davrda ham maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tarkibiga kiritilmay, ularning moddiy ta'minoti kolxozlar, sovxozlar va sanoat korxonolari, ya'ni otaliq tashkilotlari tasarrufida bo'lib, uslubiy jihatdangina Maorif ishlari xalq komissarligiga birlashtirib qo'yilgandi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha tarbiya maskanlarini moslashtirilgan, sanitariya talablariga javob bermaydigan binolarga joylashtirilishiga olib kelgan edi. Bu holat o'z navbatida maktabgacha tarbiya maskanlarini oziq-ovqat va malakali pedagog-kadrlar bilan ta'minlash ishlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan edi.

Ko'rilayotgan davrda ham maktabgacha tarbiya maskanlarining asosiy vazifasi kolxoz, sovxoz va sanoat korxonalariga jalb etilgan onalarning bolalarini ma'lum vaqt ushlab turish, sovet mafkurasiga sodiq qilib tarbiyalashga ko'maklashishdan iborat bo'lib qolgandi.

Urush yillari O'zbekistonda bolalar yaslilarining soni shaharlarda 22 foizga, qishloqlarda 30 foizga, go'daklar uylari soni 35 foizga ko'paydi [7; 208-b.]. Biroq, maktabgacha tarbiya maskanlarining bir qismi binolariga harbiy muassasalar, gospitalar joylashtirilishu natijasida doimiy ishlovchi bog'cha va yaslilarning soni sezilarli darajada kamaya boshladi.

O'zbekistonda urush davrida respublika hukumati tomonidan maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarning sihat-salomatligiga ham e'tibor qaratildi. 1944-yilda respublika

shahar va qishloqlarida ishlab turgan bolalar konsultatsiyalari 253 taga yetdi. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar uchun ochilgan 19 ta poliklinikada 145 vrach ishladi. Shahar va qishloqlardagi doimiy yasnilarda 30 mingga yaqin bolalar tarbiyalandi. 1944-yilgi dala ishlari davrida 210 ming bolaga mo'ljallangan 10563 yasli tashkil etildi. Respublikada sutli ovqatlar tayyorlaydigan 156 ovqatxona 24 ming bola uchun sut aralashmalari tayyorlab berib turildi, shu bilan birga 6500 payok sutli ovqat frontdagilarning va evakuatsiya bo'lib kelganlarning bolalari uchun tekin berib turildi [9; 128–129-b.]. Poliklinikalar huzurida zaif bolalar uchun ochilgan parxez oshxonalar har kuni o'rta hisobda 200 bolani ovqat bilan ta'minlab turdi. Bolalarni sog'lomlashtirish kompaniyasi keng avj oldirildi. Bolalar maydonchalari va pioner lagerlari tashkil etildi. Zaif bolalar O'zbekistondagi "Yong'oqzor", "Vodil", "Og'aliq", "Maxosa" va shu kabi sanatoriy-kurort shifoxonalariga yuborilib davolantirildi.

Shunday qilib, og'ir urush yillari bo'lishiga qaramay respublika hukumati maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarning sihat-salomatligi to'g'risida ham g'amxo'rlik qildilar.

Ikkinchi jahon urushining SSSR hududlariga ko'chgan dastlabki yillarida maktab ta'limi tizimida ham ancha qiyinchiliklar vujudga keldi. Xalq maorifi xodimlari, maktab o'qituvchilarining anchagina qismi frontga chaqirildi, yuqori sinf o'quvchilari esa ishlab chiqarishga jalb qilindi, maktablar binolarining bir qismi gospitalarga va harbiy o'quv punktlariga aylantirilgan. Bu holat maktablarda o'qishning ko'p smenali qilib qo'yilishiga sabab bo'lgan. Ko'plab maktab binolari aholi yashash joylaridan uzoqda joylashgan, aholining turmush darajasi ancha og'irlashgan edi. Natijada maktablarda o'quvchilarning soni 1940–1941-o'quv yilidagiga nisbatan 1942–1943-o'quv yiliga kelib, 421 ming o'quvchiga kamayib, mayda boshlang'ich maktablarning ko'plari to'liq komplektli boshlang'ich maktablarning filiallariga aylantirildi. 360 ta maktab binosi respublikaga ko'chirilgan harbiy qismlar, kasalxonalar va shu kabi harbiy idoralarga berildi [10; 492-b.]. Yoki mudofaa ehtiyojlari uchun belgilanganligi sababli, bu maktablar qo'shni maktablar bilan birlashtirildi.

1942–1943-o'quv yilida respublikada o'qituvchilar yetishmasligi sababli 200 ga yaqin boshlang'ich maktablar faoliyat yurita olmadi [8; 208-b.]. Mavjud maktablarni yoqilg'i bilan ta'minlash qiyinlashdi, yozuv qurollari, darsliklar va ko'rgazmali qurollar, maktab anjomlari, uskunalar va shu kabilar yetishmay qoldi. O'quvchilarni kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minlash masalalari ham og'ir ahvolda edi, bularning hammasi o'quvchilarning maktabga qatnashi va o'zlashtirish foizlarining pasayib ketishiga sabab bo'lgandi [3; 81-b.].

Urush davrining dastlabki yillarida uzoq masofa sababli maktablarga bormay qo'yish holati odatiy holga aylangan edi. Bu esa o'z navbatida maktab yoshidagi bolalar orasida jinoyatchilikning ham ko'payishiga olib kelgan edi. Shu boisdan O'zbekiston SSR MXK tomonidan 1942-yil 13-iyulda 833-sonli buyrug'i chiqarilib, maktablarni o'quvchilar yashash joylariga yaqinlashtirish maqsadida maktab shoxobchalarini qaytadan ko'rib chiqish, respublika maktablarida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni maktab ta'limiga tortish yuzasidan qator topshiriqlar berilgan edi.

Biroq ushbu buyruqning ijrosi ham ko'pchilik oblast, rayon va shahar maorif bo'limlari mudirlari yoki oblast ma'sullarining bee'tiborligi sababli bajarilmadi. Buning natijasida maktab shoxobchalari, o'quvchilar yashash joylaridan uzoq bo'lgani bois o'quvchilarning ko'pchiligi maktablarga qatnamay qo'ydi. Bu o'z navbatida maktablardagi sinflarda yetarli o'quvchi to'planmagani bois, sinflar tashkillanmay, ba'zi hollarda esa butun boshli maktablarning yopilishiga, ya'ni maktablarning sonini kamayishiga olib keldi.

Urush yillarida maktab o'quvchilari kundalik o'qishni har turli mehnat bilan birga qo'shib olib borar edilar. Respublikadagi oblast, tuman va shahar maorif bo'limlarining mudirlari maktab yoshidagi bolalarni maktabga to'liq tortish sohasida sustkashlikka yo'l qo'ydilar. O'quvchi yoshlar maktabdan ajratib olinib, kolxoz, sovxozlarda yoki kolxozchilarning yakka xo'jaliklarida ishladilar. Masalan, 1941-yilning iyul oyida Farg'ona oblasti kolxozlari dalalarida 17,2 ming maktab o'quvchilari ishladi [2; 59-b.].

Urush ta'sirida 1941–1942-o'quv yilida respublikamizning ayrim joylaridagi maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari ancha bo'shashgani sezildi. O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti o'quvchilar tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'yish va intizomsizlikning oldini olish yuzasidan ko'rsatmalar berdi [15; 47-b.]. Respublikadagi ko'pchilik maktablarning pedagoglar jamoasi bundan to'g'ri xulosa chiqarib, ta'lim tarbiya ishida keskin o'zgarish yasadi. Ko'p joylarda ota-onalar konferensiyalari, majlislar o'tkazilib, mazkur ko'rsatmadagi vazifalarni tushuntirish ishlari olib borildi, tegishli tadbirlar belgilandi. Masalan, o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish va ularni darsdan bo'sh vaqtlarda nazoratsiz qoldirmaslik uchun o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari tashkil etildi [4; 129-b.].

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramay respublika rahbariyati, maorif tashkilotlari maktablar tarmog'ini saqlab qolish, ularning moddiy ba'zasini mustahkamlash, umumiy ta'lim to'g'risidagi qonunni bajarish yuzasidan amaliy choralarni ham ko'rib bordilar.

Maktablarni, ayniqsa boshlang'ich sinflarni o'qituvchilar bilan ta'minlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Bu kurslar 1941-yildan 1943-yilga qadar 16 ming o'qituvchi tayyorlab berdi. Shuningdek, boshqa sohalarida ishlayotgan o'qituvchilarni qaytarish borasida ham samarali ishlar olib borildi. Jumladan, 1944–1945-o'quv yili boshlangunga qadar O'zbekistonda 55 ming o'qituvchi maktablarga ishga qaytdi. O'sha yilning o'zida Farg'ona oblastida Qo'qon pedagogika va o'qituvchilar institutiga va pedagogika bilim yurtining sirtqi bo'limlariga 796 o'qituvchi sirdan ta'lim olishga jalb qilindi [1; 230-b.]. Qo'qon va Marg'ilonda o'qituvchilar malakasini oshirish ma'ruzalar kurslarida tinglovchilarga pedagogik mavzularda ma'ruzalar muntazam ravishda o'qib borildi.

Farg'ona vodiysi oblastlaridagi mavjud maktablarni o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashda Andijon ayollar pedagogika bilim yurti ham o'zining samarali ulushini qo'shdi. Birgina 1944–1945-o'quv yilida ushbu o'quv maskanini 241 nafar bitiruvchi bitirib, maktablarga ishlash uchun yo'llanma oldilar [16; 7–8-b.].

1943-yil 23-iyulda SSSR Xalq Komissarlari Sovetining O'zbekiston SSR maktablarini o'qituvchi kadrlar bilan to'ldirishga doir muhim qarori chiqdi. Bu qarorda O'zbekiston maktablari uchun milliy pedagog kadrlar tayyorlash, mavjud pedagog xodimlar bilimini yaxshilash masalasi ko'rilib, mahalliy maktablar uchun o'zbek xotin-qizlaridan pedagoglar tayyorlashning ahamiyati ta'kidlab o'tildi. Qarorga binoan o'qituvchi kadrlar tayyorlash uchun qisqa muddatli kurslar ochildi. Kurslar 2 xil edi: birida I-IV sinflar uchun, ikkinchisida V-VII sinflar uchun turli fan o'qituvchilari tayyorlandi. Bu kurslarga yetti yillik hamda to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lgan o'zbek qizlari jalb etildi. Mazkur kurslar urushning oxirigacha ishlab turdi [11; 128–129-b.].

Urush yillarida pedagog o'qituvchilar sanoat va qishloq xo'jaligida front topshiriqlarini bajarishda, armiyaning jangovar rezervlari va mudofaa fondlarini tayyorlab berishda ham hukumatga katta yordam berdilar.

Pedagoglar ta'lim-tarbiyadan tashqari aholi orasida ma'rifiy-siyosiy ishlarni olib bordilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRda bir necha ming o'qituvchilar tashviqot va targ'ibotchi vazifasini bajardilar. Birgina Andijon oblastining maktab va o'quv yurtlarida 3862 nafar pedagog ayni vaqtda targ'ibot va tashviqotchi vazifasini ham o'tadilar [5; 128-b.]. Ular aholiga g'alaba uchun kurash kunning dolzarb vazifasi ekanligini singdirib bordilar.

Ayol o'qituvchilar maktab ishlaridan tashqari, o'z o'quvchilari bilan birgalikda qishloq xo'jalik ishlarida, mudofaa fondlariga mablag' to'plashda, mehnat shanbalik va yakshanbaliklarini uyushtirishda, front uchun, qamalda qolgan Leningrad (hozirda Sankt-Peterburg) aholisi uchun sovg'a-salomlar tayyorlashda, rangli metall va temir-tersaklar to'plashda, gospitalarni otaliqqa olish va boshqa vatanparvarlik ishlarida faol qatnashdilar. Jangchilarga, shuningdek evakuatsiya qilinganlarning bolalariga g'amxo'rlik ko'rsatishda ham ularning ishtiroklari bor edi [6; 131-b.].

Urush yillarida O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi yangiliklardan biri o'quvchilar ortasida harbiy-fizkultura ishlari bo'lib, barcha o'quvchilarga havo hujumidan va ximiyaviy hujumdan mudofaa asoslarini o'rgatish joriy qilindi. Minglab o'quvchilar BGTO(Будь готов к

труду и обороне), GTO(Готов к труду и обороне), GSO(Готов к санитарной обороне) normalarini topshirdilar. O'qituvchilar zimmasiga esa bolalarda ongli intizomni tarbiyalash bo'yicha mas'uliyatli vazifalar yuklatildi.

Xullas, Ikkinchi jahon urushi yillarida maktabgacha ta'lim maskanlari xodimlari ham o'z mehnatlari bilan, xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlovchi ishchi kuchining yetishmasligini qondirishga yordam berdi. Urush yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar hamda moddiy ta'minot masalasidagi uzilishlarga qaramay maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari ham o'z mehnati bilan g'alabaga munosib hissalarini qo'shdilar.

Shuningdek, Ikkinchi jahon urushini yillarida O'zbekiston maktab ta'limi tizimida ko'plab qiyinchiliklar vujudga keldi. Xalq maorifi xodimlari, maktab o'qituvchilarining ko'p qismi frontga safarbar qilindi. Maktablarning yuqori sinf o'quvchilari esa turli xil ishlab chiqarish tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi ishlarida ishlashga majbur etildi. Maktablar binolarining bir qismi gosptallarga va harbiy o'quv punktlariga aylantirildi. Ko'plab maktab binolari aholi yashash joylaridan uzoq bo'lgani bois o'quvchilarning ko'pchiligi maktablarga qatnamay qo'ydi. Maktab o'qituvchilari sanoat va qishloq xo'jaligida front topshiriqlarini bajarib, hukumatga katta yordam berdilar. Shuningdek, pedagoglar ta'lim-tarbiyadan tashqari aholi orasida ma'rifiy-siyosiy ishlarni ham olib borib, aholiga g'alaba ruhini singdirishda o'z xissalarini qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алимova Д. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент:Шарқ, 2002.
2. Вавилов Ф.И. Ферганская область в Великой Отечественной войне. – Ташкент: Фан, 1988.
3. Народное образование в УзССР за 30 лет. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1954.
4. Пўлатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон хиссаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
5. Пўлатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон хиссаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
6. Пўлатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон хиссаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
7. Турсунов Х., Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. Педагогика институтларининг тарих факультетлари студентлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
8. Турсунов Х., Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. Педагогика институтларининг тарих факультетлари студентлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
9. Ўзбекистон ССР тарихи. Тўрт томлик. – Тошкент: Фан, 1971.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
11. Ўзбекистон ССР тарихи. Тўрт томлик. – Тошкент: Фан, 1971.
12. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 508-ish.
13. O'z MA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 4542-ish.
14. O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 4781-ish.
15. O'z MA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 3689-ish.
16. O'z MA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 3689-ish.